

XX ASR O'RTALARIDA MESXETI TURKLARNING TUB YASHASH YERIDAN SURGUN QILINISHI

Nurullayev Jaxongir Abdumalikovich

Elektron pochta: j.nurullayev@mail.ru

Annotatsiya: Ikkinchi jahon urushi davrida SSSR hukumati tomonidan turli xalqlar repressiyaga uchratilib, ularning tub yashash yerlaridan nisbatan noqulay bo'lgan hududlarga surgun qilinishi haqida gapiriladi. Muallif ushbu masalani yoritishda nisbatan yangi ma'lumotlarga tayangani, ularni 90-yillardan oldingi mualliflar bilan solishtirib xolisona fikrini bildirib o'tganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida tub yashash yeri hozirgi Gruziyaning janubi-g'arbiy qismidagi Mesxetiyada bo'lib, ular turk tilining shimoli-sharqiy Anadolu dialektlaridan birida so'zlashishi, e'tiqodi islom dinining sunniy mashabi va qisman shialikda ekanligi aytiladi. Shunga qaramay ikkinchi jahon urushi davrida mesxeti turklarini o'zlariga notanish va noqulay bo'lgan hududlarga majburiy holatda ko'chirilganligi, hech bir insoniylikka to'g'ri kelmaydigan holat ekanligi hamma ma'lum. Muallif shu masalada ham ushbu amallar o'z vaqtida qanchalik qonuniy ahamiyatga ega bo'lganligini ilmiy asoslarga tayanib yoritishga harakat qilgan. Muallif mesxeti turklarni surgun qilish uchun SSSR hukumatida yetarli asoslar bo'lmaganligini ham ta'kidlab o'tadi. Hozirgi vaqtlargacha mesxeti turklar tub yeridan surgun qilinganligi muammosi saqlanib kelayotganligi ham eslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mesxeti turklar, Anadolu, Tsalinsk, Borchalinsk, Karayaz, GKO, B.Kobulov, GOKO, NKVD, Xoshtariya.

Mesxeti turklar tarixan hozirgi Gruziyaning janubi-g'arbiy qismidagi Mesxetiyada yashab kelgan. Ular turk tilining shimoli-sharqiy Anadolu dialektlaridan birida so'zlashadi. E'tiqodi islom dinining sunniy mashabi va qisman shialikda.

Ikkinchi jahon urushidagi deportatsiyalar navbati I.Stalinning Vatani bo'lgan Gruziyaga qaratildi. 1944-yil mart oyi oxirlarida Tbilisining kurd va ozarbayjon oilalari deportatsiya qilinishidan boshladi. Ularning soni 3240 nafarni tashkil qilgandi. Bu aholi Gruziyaning o'zida Tsalinsk, Borchalinsk va Karayaz tumanlariga ko'chirildi. Stalin asosiy e'tiborini Gruziyaning sovet-turk chegarasida yashovchi musulmon aholiga qaratdi. Bu chegaraning Turkiya qismida turklar 30 diviziyani doimiy ravishda saqlab turardi. Lekin, 1944-yilda bu holat SSSR uchun xavf tug'dirmasdi. Shunday bo'lsa-da, Beriyaning Stalin, Molotov va Malenkovga 1944-yil 28-noyabrda yo'llagan ma'lumotnomasida – Mesxetiya aholisi Turkiya aholisi bilan qardoshlik rishtalari bilan bog'langanligi, ularning kontrabanda bilan shug'ullanayotganligi, emmigratsion

kayfiyatdaligi, turk ayg'oqchilariga ma'lumotlar yetgazib turayotganligi, jinoiy guruhlar tuzishda qatnashayotganligi kabi jihatlari aytib o'tildi.²⁵

Mesxeti turklar tarixan 1829-yilda Rossiyaga Andrianopol sulhi bilan qo'shib olingandi. Mesxetiya uzoq vaqt Turkiya nazoratida bo'lgan. Shuning uchun ham ular turkcha ismlarda atalib, turk tilida so'zlashardi. Ularning etnik jihatda tazyiqqa uchrashi 1928-1937-yillarda bo'lgandi, ularga majburan gruzin ismlari berilib, gruzin tiliga o'tishga majburlangandi. Turkiya bilan chegara hududlardagi aholini ko'chirish masalasi 1942-yildayoq tayyorgarlik ko'rish bo'yicha ko'rib chiqilgandi. Aynan ko'chirish masalasi 1944-yil bahoridan boshlab amaliyotga o'ta boshladi. O'sha davrda gap 77,5 ming kishi haqida borayotgandi. Ularni Sharqiy Gruziya hududidan ko'chirish maqsad qilindi. Ammo, 1944-yil 24-iyulida Beriya Stalinga 16 700 turk, kurd va xemshil xo'jaliklarini Gruziyaning Turkiya bilan qisman chegara hududlari sanalgan Axaltsix, Adigen, Aspindz, Axalkalak va Bogdanov tumanlaridan ko'chirishni taklif qildi. 31-iyulda 76 021 nafar turk (keyinchalik 3180 nafar turk), 8694 nafar kurdlar va 1385 nafar xemshillar ko'chirilishi to'g'risida qaror ishlab chiqildi. Boshqa millatga mansub erkaklarga turmushga chiqqan ayollari esa deportatsiyadan ozod qilindi.²⁶

Deportatsiyani maqullash borasidagi qonun yoz o'rtalarida qabul qilindi, uni qishgacha amalga oshirish maqsad qilindi. Lekin, uning o'z vaqtida bajarilishiga yo'llarning yaroqsizligi xalaqit berdi. Mesxeti turklarni ko'chirishda ishlatilgan Borjomi-Vale temir yo'li qurilishi yakunlanishiga hali vaqt kerak edi. Mesxeti turklarning kattagina qismi Qozog'istonga ko'chirilishi kerak edi, boshqa xalqlarning ham Qozog'istonga ko'chirilayotganligi sababli hukumat vakillari mesxeti turklarni boshqa hududga ko'chirishni iltimos qildi. Bu iltimos qondirilmagan bo'lsa-da, ularning Qozog'iston SSR ga ko'chiriladigan miqdori qisqartirildi.

Shu sabablar tufayli ko'chirish jarayoni qish pallasiga to'g'ri keldi. Ko'chirishning o'zi GKO buyrug'i chiqarilgandan 3,5 oy o'tib, NKVD buyrug'idan 2 oy o'tibgina amalga oshirildi. Ko'chirish jarayoni 1944-yil 15-noyabrda boshlangan bo'lib, jarayon uch kun davom etdi. Ko'chirish vaqtida oilalar 2 soat oldin ogohlantirilib, shu vaqt ichida barcha zaruriy narsalarini yig'ib bo'lishi kerak edi. Bitta mashinaga 7-8 ta oila yuklangandi. Bitta vagonga esa 20-25 ta oila yuklangandi. Bu yerdagi operatsiyaga boshchilik qilish Beriya buyrug'i asosida B.Kobulov va gruzin narkomlariga – davlat xavfsizligi (Rapava) va ichki ishlar xizmatiga (Karanadze) yuklatildi. Mesxeti turk erkaklarining ko'pchiligi frontda bo'lganligi sababli ko'chirishni tashkil qilish uchun 4 ming nafar NKVD ning tezkor xizmatchilari yetarli bo'ldi.²⁷

²⁵ Бугай Н.Ф., Мамаев М.И. Международное общественное объединение турок-месхетинцев «Ватан» как институт власти гражданского общества. М.: 2015. С.168.

²⁶ Бугай Н.Ф., Мамаев М. И. Турки-месхетинцы: Грузия, Узбекистан, Россия, США. — М.: МСНК-пресс, 2009. С. 78.

²⁷ Джеймс Г., Томлинсон К. - Жизнь вчера, сегодня и завтра: турки-месхетинцы на юге России. Олдершот, 2005. С. 107.

Ko'chirish jarayoniga 89 selsovet va 220 aholi punktlari qamrab olindi. Ulardan bo'shab qolgan yerlarni Gruziyaning kam yerli 7 ming dehqoni va chegarachilarning 20 ming nafariga bo'lib berishga qaror qilindi.

17-noyabr kuni soat 16.00 larda Gruziyadan 25 eshelonda 81 324 nafar deport qilinganlar ko'chirilgandi. Ma'lumotlarga ko'ra, 3 kun ichida 90 mingdan 125 ming kishigacha aholi ko'chirib bo'lingandi. Beriyaning Stalinga bergan hisobotida 91 095 kishi ko'chirilganligi aytilgan. Chernishev va M.Kuznetsovning Beriysga bergan hisobotida esa 92 307 kishi ko'chirilganligi aytiladi. Ulardan 18 903 nafari erkak, 27 399 nafari ayol, 16 yoshgacha bo'lganlar 45 985 nafarni tashkil qildi.

Gruziyadan Markaziy Osiyogacha yo'l ikki-uch haftani tashkil qiladi. Shuning uchun ham mesxeti turklarning ko'chirilishi jarayoni dekabrda yakunlandi. Ko'chirilgan hududlarda mesxeti turklar ichimlik suvi yaxshi emasligi va ba'zan kasallik epidemiyalari (asosan O'zbekistondagi terlama kasalligi) kabi qiyinchiliklarga duch keldi. Ko'chirilganlar orasida o'lim holatining yuqoriligi sabablaridan biri jarayonning qishda o'tkazilganligida ham edi. 1948-yil iyundagi holat bo'yicha norasmiy xabarlarga ko'ra, ko'chirilganlarning 1/3 qismi halok bo'lgan, rasmiy xabarlarga ko'ra esa 11,8 % aholi vafot etgandi. Rasmiy xabarlarda deportatsiya va surgundagi og'ir sharoitlar eng kamida 12 589 dan 14 895 gacha odamning o'limiga olib keldi.

Umumiy hisobda 92 307 kishi ko'chirildi, ulardan 18 923 erkak, 27 399 ayol, 45 085 nafar 16 yoshgacha bo'lgan bolalar edi. Ularning yarmidan ko'pi, aniqrog'i 53 133 kishi O'zbekistonga, 28 598 kishi Janubiy Qozog'istonga va 10 546 kishi Qirg'iziston SSR hududiga ko'chirildi. Ularni ish bilan ta'minlashdagi asosiy soha qishloq xo'jaligi bo'ldi. Mesxeti turklar o'zlari uchun yangilik bo'lgan paxtachilik sohasida band bo'lishlariga to'g'ri keldi.²⁸

40-yillarda mesxeti turklarning umumiy soni qisqara bordi, bunga ko'chirishdagi yo'qotishlardan tashqari, ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan 20 ming mesxeti turklar ham katta yo'qotishlardan biri edi. Ularning yashash yeridan boshqa hududga ko'chirilishi SSSRning Kavkazdagi janubiy chegaralarini mustahkamlash uchun chora sifatida talqin etildi.

1944-yil 31-iyulda Davlat Mudofaa Komitetining (GOKO) "Gruziya SSR chegara chizig'idan mesxeti turklar, kurdlar va xemshillarni ko'chirish to'g'risida"gi № 6279cc – sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Gruziya SSR chegara hududlari – Axaltsix, Adigen, Aspindz, Axalkalak, Bogdanov tumanlari va Adjar ASSR hududlaridan – 16 700 xo'jalik ya'ni 86 000 kishini mesxeti turk, kurd va xemshillar ko'chirilishi belgilandi. Ularning ko'chiriladigan hududlaridagi taqsimoti ham belgilanib, Qozog'iston SSR ga 40 000 kishi, O'zbekiston SSR hududiga 30 000 kishi, Qirg'iziston SSR hududiga 16 000 kishi ko'chirilishi ko'zlandi. Yuqoriroqda aytib o'tganimizdek, ko'rsatkichlar ushbu qarordagidan farq qildi. Bunda O'zbekiston hududiga ko'proq aholi deportatsiya qilindi.

²⁸ Полян П.М. «Советские репрессии в отношении иностранцев: Большой террор, ГУЛАГ, депортация». М.: 2003. С.221.

Qaror ijrosi SSSR NKVD zimmasiga yuklatildi. Qarorga ko'ra, ko'chirish 1944-yil noyabrda amalga oshirilishi kerak edi. Gruziya SSR chegara hududlaridan ko'chirilayotgan aholiga o'zlari bilan faqatgina shaxsiy buyumlarini olishga ruxsat berildi. Bunda har bir oila ko'chish jarayonida o'zi bilan 1 000 kg dan ortiq bo'lmagan buyumlarni olishi mumkin edi. Ulardan qolgan mol-mulk, uy-joy, bog'lar, qoramolni ro'yxatga olish Gruziya SNK raisi o'rinbosari Xoshtariyaga topshirildi. Ulardan qabul qilib olingan mol-mulkka qarab, ko'chirilgan hududlarga ularga ayirboshlash kvitansiyalari topshirildi hamda ularga oziq-ovqat olish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бугай Н.Ф., Мамаев М.И. Международное общественное объединение турок-месхетинцев «Ватан» как институт власти гражданского общества. М.: 2015.
2. Бугай Н.Ф., Мамаев М. И. Турки-месхетинцы: Грузия, Узбекистан, Россия, США. — М.: МСНК-пресс, 2009.
3. Джеймс Г., Томлинсон К. - Жизнь вчера, сегодня и завтра: турки-месхетинцы на юге России. Олдершот, 2005.
4. Полян П.М. «Советские репрессии в отношении иностранцев: Большой террор, ГУЛАГ, депортация ». М.: 2003.
5. Турки-месхетинцы : Интеграция, репатриация, эмиграция. Ред.: Т.Триер, А.Ханжин — СПб.: Алетейя, 2007.
6. Кольцов В.. Месхи: Народ между колёсами империй. М.: 1990.
7. Панеш Э.Х., Ермолов Л. Б. Месхетинские турки // Вопросы истории. - 1991.